



## STRATEGIC IMPORTANCE OF FAMILY AND NEIGHBORHOOD INSTITUTIONS IN THE PREVENTION OF CRIME AMONG JUVENILES

Tastanbekova Gulchexra  
Associate Professor, Tashkent International University

Chinberdiyev Azizbek  
1st Year Student of Jurisprudence

## VOYAGA YETMAGANLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASIDA OILA VA MAHALLA INSTITUTLARINING STRATEGİK AHAMIYATI

Tastanbekova Gulchexra  
Dotsent, Toshkent International University

Chinberdiyev Azizbek  
1-bosqich yurisprudensiya yunalishi talabasi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishda oilaviy muhit va mahalla institutining strategik ahamiyati tahlil qilinadi. Muallif an'anaviy jazo va nazorat tizimidan voz kechib, yoshlarni to'g'ri yo'lga raqamli rag'batlantirish orqali yo'naltirish, ya'ni "Ijtimoiy kapital" konsepsiyasini joriy etish g'oyasini ilgari suradi. Maqolada oiladagi ma'naviy tarbiya va mahalladagi jamoatchilik nazorati birlashsa, jinoyatchilikning sabablari ildizi bilan bartaraf etilishi ilmiy asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** Voyaga yetmaganlar, Huquqbuzarliklar profilaktikasi Oila va mahalla hamkorligi, Ijtimoiy kapital, Raqamli rag'batlantirish, Deviant xulq-atvor, "Mahalla yettiligi", Ijtimoiy reabilitatsiya

### **Аннотация**

В данной статье анализируется стратегическое значение семейной среды и института махалли в предупреждении правонарушений среди несовершеннолетних. Автор выдвигает идею перехода от традиционной системы наказания к модели "Социального капитала", которая предполагает цифровое стимулирование молодежи к законопослушному поведению. В



работе научно обосновано, что синергия духовного воспитания в семье и общественного контроля в махалле позволяет устранить коренные причины преступности.

## Abstract

This article analyzes the strategic importance of the family environment and the "Mahalla" institution in preventing juvenile delinquency. The author proposes a shift from the traditional system of punishment and surveillance to the "Social Capital" concept, which involves digital incentives to guide youth toward lawful behavior. The paper scientifically substantiates that the synergy between moral upbringing within the family and social control in the community can eliminate the root causes of crime. Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish bugungi kunda nafaqat huquqiy, balki chuqur ijtimoiy-pedagogik mazmun kasb etuvchi strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Yosh avlodning dunyoqarashi va huquqiy ongining shakllanishi bevosita ikki fundamental institut — oila va mahalla o'rtasidagi vertikal hamda gorizontaal aloqalarning mustahkamligiga bog'liqdir. Zamonaviy kriminologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan har qanday deviant xulq-atvor ko'p hollarda oiladagi ma'naviy-psixologik bo'shliqning tashqi muhitdagi aksidir. Oila shaxsning birlamchi ijtimoiylashuv maskani sifatida bolada jamiyat qoidalari va qonun hujjatlariga nisbatan hurmat yoki aksincha, nigilizm (inkor qilish) kayfiyatini shakllantiradi. Shu sababli, profilaktik choralarning samaradorligi eng avvalo oilalardagi sog'lom muhitni tiklash, ota-onalarning farzand tarbiyasi borasidagi huquqiy va ma'naviy mas'uliyatini oshirish bilan o'lchanadi. Ota-onalar tomonidan nazoratning susayishi yoki oiladagi nizoli vaziyatlar voyaga yetmagan shaxsning tashqi g'ayriijtimoiy guruhlar ta'siriga tushib qolishiga zamin yaratadi. Misol uchun ota ona o'rtasida bo'ladigon urishlar, bolaga oilaviy mehrning kamligi va yana shunga oxshash muammolar bolani turli xil g'ayriijtimoiy guruhlar safiga qo'shilib qo'shilib qolishi ehtimoldan holi emas.<sup>1</sup>

Bunday sharoitda mahalla instituti oiladagi tarbiyaviy jarayonni to'ldiruvchi va uni ijtimoiy nazorat bilan boyituvchi asosiy bo'g'in sifatida maydonga chiqadi. O'zbekistonning o'ziga xos tajribasi bo'lgan mahalla "beshligi" tizimi voyaga yetmaganlar bilan ishlashda manzilli yondashuvni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Mahalla faollari va profilaktika inspektorlarining xonadonbay ishlash uslubi

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 01.12.2025 yildagi 754-son Jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi Hukumat qarorlarini tizimlashtirish to'g'risida





huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan yoshlarni erta aniqlash va ularning ijtimoiy reabilitatsiyasi bilan shug'ullanish imkonini beradi. Bu jarayonda mahallaning roli faqatgina nazorat qilishdan iborat bo'lmasdan, balki bolaning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, uni foydali mehnatga yo'naltirish va ma'naviy qo'llab-quvvatlashni ham qamrab oladi. Mahalla muhitida shakllangan jamoatchilik fikri voyaga yetmagan shaxs uchun o'ziga xos ma'naviy filtr vazifasini o'tab, uni yot g'oyalar va zararli axborotlar xurujidan himoya qiladi. Ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlar ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish tadbiri.

10. Profilaktika inspektori axborot tizimi orqali yuborgan ijtimoiy profilaktika obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlar uch ish kuni ichida o'rganib chiqadi.

11. Ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlar ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiradi yoki amalga oshirishni rad etish to'g'risida xulosa tayyorlaydi. Bunda:

ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda, ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlar uch ish kuni ichida axborot tizimi orqali o'zining ijtimoiy moslashtirish dasturini ishlab chiqadi; rad etish to'g'risida xulosa tayyorlangan taqdirda, taqdim etilgan hujjatlar va ma'lumotlarda aniqlangan kamchiliklar ko'rsatilib, ularni bartaraf etish hamda takroran yuborish uchun axborot tizimi orqali profilaktika inspektoriga qaytaradi.

12. Profilaktika inspektori tomonidan ijtimoiy profilaktika obyektlari bo'yicha xulosa taqdim etilmagan yoki xulosada mazkur Nizomning 5-bandida ko'rsatilgan ma'lumotlar aks ettirilmagan bo'lsa, ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlar tomonidan ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish rad etilishi mumkin. Bu haqida ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirishni rad etish to'g'risidagi xulosada ko'rsatiladi.

13. Ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish rad etilgan holat yuzasidan profilaktika inspektori besh ish kuni ichida xulosada ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etib, axborot tizimi orqali ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlarga takroran taqdim etadi.

14. Ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish to'g'risida qabul qilgan qaror bo'yicha ijtimoiy moslashtirish dasturida ijtimoiy profilaktika obyektiga nisbatan amalga oshiriladigan ijtimoiy profilaktika tadbirlari va ularning muddatlari aks ettiriladi.

15. Ijtimoiy moslashtirish dasturi ijtimoiy profilaktika tadbirlari amalga oshiriladigan shaxslarning har biri uchun alohida tuziladi, ijtimoiy moslashtirish



dasturiga har bir ijtimoiy profilaktika obykti kiritiladi hamda dastur tasdiqlangan vaqtdan boshlab ijroga qaratiladi.

Ijtimoiy moslashtirish dasturida belgilangan tadbirlarning bajarilishi bo'yicha ma'lumotlar muntazam ravishda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlar tomonidan axborot tizimiga kiritib boriladi.

Axborot tizimiga kiritilgan ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun ularni kiritgan shaxs shaxsan javobgar hisoblanadi.

16. Profilaktika inspektorining ijtimoiy profilaktika obyektlarini aniqlash va ularga doir ma'lumotlarni ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlarga o'z vaqtida taqdim etish, shuningdek, mazkur Nizomning 17-bandi "b" kichik bandiga muvofiq uning o'zi tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy moslashtirish dasturida belgilangan tadbirlarning bajarilish holati tuman (shahar) huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmasi tomonidan kunlik monitoring qilib boriladi. Shu normalar asosida mahallada profilaktik ishlar amalga oshiriladi.

Profilaktika tizimini yanada takomillashtirishda oila va mahalla hamkorligini<sup>2</sup> yangi sifat bosqichiga olib chiqish talab etiladi. Bu borada mahallalarda "oila-maktab-mahalla" zanjiri asosida ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish, voyaga yetmaganlar o'rtasidagi nizolarni hal qilishda jamoatchilik mediatsiyasi usullaridan keng foydalanish kutilgan natijani beradi. Band bo'lmagan aholining, ayniqsa, ishsiz yoshlar va xotin-qizlarning muammolarini o'rganish orqali ularni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'rgatuvchi kurslarga yo'naltirish va mehnat faoliyati bilan shug'ullanishga amaliy ko'maklashish. Shuningdek, yoshlar o'rtasida huquqiy immunitetni shakllantirishda raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalangan holda mahallabay "virtual profilaktika" tizimlarini joriy etish ham dolzarbdir. Shuni aytib o'tishim kerakki, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga qarshi kurashishda oiladagi tarbiya va mahalladagi ijtimoiy sergaklikning uyg'unligi jamiyatda huquqiy tartibotni saqlashning eng barqaror kafolati bo'lib xizmat qiladi. Ushbu ikki institutning profilaktik salohiyatidan to'liq foydalanish kelajakda yoshlar jinoyatchiligi darajasini tizimli ravishda pasaytirish va sog'lom ijtimoiy muhitni qaror toptirishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihat shundaki, mahalla institutining profilaktik imkoniyatlari bugungi kunda "raqamli muhit" bilan to'qnash kelmoqda. Zamonaviy huquqbuzarliklarning aksariyati, xususan kiberjinoyatlar, kiberbulling va zararli o'yinlarga qaramlik bevosita virtual olamda sodir bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazardan,

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 19.03.2021 yildagi 152-son "Mahallabay" ishlash tizimini amaliyotga joriy etish va aholining tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida





mahalladagi yoshlar yetakchilari va profilaktika inspektorlarining faoliyati faqatgina jismoniy hudud bilan cheklanib qolmasligi, balki yoshlarning internetdagi faolligini ham qamrab oluvchi "media-profilaktika" elementlari bilan boyitilishi shart. Mahalla jamoatchiligi yoshlarni virtual xavflardan asrashda zamonaviy filtr vazifasini o'tashi, ularda axborotga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantirishi maqolaning eng kuchli argumentlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Misol uchun oddiy holat ,ko'chalarda yursak ham yoki bir ko'ngil ochar maskan deymizmi ,xullas shunga oxshash joylarda bir guruh bolalar "PUBG" nomli oyin orqali o'z munkalaridan ketishgan holatlarga ham biz real guvoh sifatida turibmiz.

Xulosa o'rnida shuni aytib otishim keraki , yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilik muammosini faqat qonun bilan yoki jazo bilan hal qilib bo'lmaydi. Bola qing'ir yo'lga kirdimi, demak, qayerdadir biz — kattalar xatoga yo'l qo'yan bo'lamiz. Yo oilada unga yetarlicha mehr va e'tibor berilmagan, yoki mahallada u o'zini kerakli his qilmagan.

Mening fikrimcha, biz voyaga yetmaganlarni "nazorat qilish" degan qarashdan voz kechishimiz kerak. Buning o'rniga, ularni yanada to'g'ri yo'lda yurishga qiziqтира olishimiz lozim. Tasavvur qiling, agar mahallada har bir bolaning qilgan yaxshi ishi, o'qigan kitobi yoki sportdagi yutug'i kelajakda unga oliy o'quv yurtiga kirishda yoki ishga joylashishda haqiqiy foyda keltiradigan tizim bo'lsa, u hech qachon jinoyatga qo'l urmaydi. Chunki u bitta xatosi bilan butun kelajagini barbod qilishini aniq tushunib yetadi.

Xullas, maqsadimiz bolani jazolash emas, balki uning ongidagi "jinoyat qilsa bo'ladi" degan fikrni ildizi bilan sug'urib tashlash bo'lishi kerak. Qachonki oiladagi samimiy tarbiya mahalladagi adolatli muhit bilan birlashsa, biz qog'ozdagi emas, amaldagi natijaga erishamiz. Shunda yoshlarni jamiyat uchun xavf emas, balki yurtning haqiqiy tayanchiga aylanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 19.03.2021 yildagi 152-son "Mahallabay" ishlash tizimini amaliyotga joriy etish va aholining tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 01.12.2025 yildagi 754-son Jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi Hukumat qarorlarini tizimlashtirish to'g'risida



3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoni
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-son Farmoni.

